

Springer Nature onlayn resurslaridan foydalanish

O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar institutida Springer Nature kompaniyasining Markaziy Osiyo bo'yicha vakili I.A.Aleksandrova tomonidan Springerlink platformasidan foydalanish borasida seminar o'tkazildi. Seminarda ilmiy maqolalar uchun ilmiy jurnallarni to'g'ri tanlash, ilmiy maqolalarni yozish va uni rasmiylashtirish tartibi hamda uni nufuzli xorijiy jurnalda chop ettirish, monografiya yozish masalalari ko'rib chiqildi. Ayni vaqtda Institut ilmiy jurnallarini Springer Nature bazasiga kiritish borasida taklif va tavsiyalar berib o'tildi.

